

MAVLONO NIDOIYNING “MANOFE UN-NOS” ASARI HAQIDA

Rajabova Nodira Hakimboy qizi

Urganch davlat universiteti 3-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada Qrim xoni Sohib Gireyxonning shaxsiy tabibi, tabobat va yana bir qancha sohalarga doir 22 ta asar yozgan Mavlono Nidoiyning qrimlik savdogarlar tomonidan Muhammad Rahimxonga sovg'a qilingan “Manofe un-nos” asari va uning o'rganilishi to'g'risida mulohazalar yuritilgan.*

***Аннотация:** В статье рассматриваются личный врач крымского хана Сахиб Гирейхан, написавший 22 работы по медицине и ряду других областей, работа Мавланы Нидои «Манофе ун-нос», подаренная Мухаммаду Рахимхану крымскими купцами, и ее изучение.*

***Abstract:** In the article, the personal physician of Crimean khan sahib Girey Khan, who wrote 22 works on medicine and several other fields, mawlana Nidoi's work «Manofe un-nos» gifted to Muhammad Rahim Khan by Crimean merchants and its study are discussed.*

***Kalit so'zlar:** “Qayunnoma”, xalq tabobati, Germaniyaning Myunxen shahar kutubxonasi, tabib, inson vujudiga foydalar, “Multaqitut-tib”.*

***Ключевые слова:** «Каяуннома», народная медицина, Мюнхенская городская библиотека Германии, врач, польза для организма человека, «Мультакитут-тиб».*

***Key words:** «Каяуннома», folk medicine, Munich city library of Germany, doctor, benefits to the human body, «Multaqitut-tib».*

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan o'tmish ajdodlar merosini o'rganish, ilmiy adabiyotlarni ona tilimizda yozish imkoniyatlari ochildi. Ayniqsa xalq tabobatining boy merosini o'rganish, uning eng yaxshi tomonlarini hayotga tadbiiq etish imkoniyati tug'ildi. Lekin tarjima qilingan tibbiy asarlar inson salomatligini saqlashda uzoq yillar xizmat qilib kelgan bo'lsa ham, bu boy merosimizga e'tibor XX asrdan keyin ancha susayib ketganligini ko'ramiz. Chunki

sobiq Ittifoq davrida tabobat ilmiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlarda xalq tabobati merosidan foydalanish masalalari hamisha e'tibordan chetda qoldirilar edi. Sababi, Markaziy Osiyo xalqlarining tabobat sohasida erishgan yutuklar yetarli tan olinmasdi. Vaholanki, barcha fanlar qatori tabobatga oid mukammal yozilgan asarlarni ham maromiga yetkazib tarjima qilib kelinganligiga tarix guvohlik beradi.

Mustaqillik tufayli asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy Xorazm xalq tabobatini uzoq o'mishga borib taqaladi. Chunki har bir o'lka, jumladan Xorazm ham o'ziga xos xalq tabobatidan tarixiy xazina yaratgan mintqa hisoblanadi.

Uzoq yillar ilmiy izlanishlar tufayli o'tmish ajdodlarimiz ko'plab hayrli ishlar qilganligining guvohi bo'lmoqdamiz. O'tmishda ba'zi kishilar tomonidan davlat arboblari va mashhur shaxslarga noyob kitoblar sovg'a qilish rasm bo'lgan. Buning natijasida nodir asarlar, ilm fan to'g'risidagi yozma ma'lumotlarning el orasida tarqalishi uchun bir muncha yo'l ochilgan. Buning yorqin misoli, noma'lum Qrim savdogari Xiva xoni Muhammad Rahimxonni Soniy (Feruz)ga Mavlono Nidoiyning "Qayunnoma" nomli tabobatga oid asarini sovg'a qilgan. Bu asar Usmonli turk tilidan Mahmud Oxun Al-Xonqaiy tomonidan 1902-yilda "Manofe ul-inson" nomi bilan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Mahmud Oxun Xonqaiy o'sha davrda Xivadagi Said Zafar masjidida yashagan va ijod qilgan.

Muhammad Rahimxon (1864 – 1910) saroyida tashkil topgan adabiy muhitda shoirlar, olimlar, tarjimonlar bo'lib, ular tarix, adabiyot va diniy asarlar bilan bir qatorda tibbiy asarlarni ham, arab, fors va boshqa tillardan o'zbek tiliga o'girilgan. Xon esa hamisha tarjima qilinishi zarur bo'lgan asarlar ro'yxatini tuzib, saroydagi har bir tarjimonning mahoratiga qarab bo'lib, bergan va uni davlat ishi deb hisoblab kelgan. Chunki Xorazm mamlakatida xalq orasida turli kasalliklar mavjud edi. Tabobat ilmining rivojlanishi ancha pasayganligini hisobga olib, xon barcha viloyatlarda tabib hoziqlarning ko'payishini, turkiy tilda bitilgan ushbu asarning bo'lishini, zarur bo'lganda har bir kasallikni aniqlashni va uning davosini osonlik bilan ushbu kitobdan topishini hisobga olgan edi¹.

¹ Sobirov R, Feruzshohga noyob sovg'a. – Urganch, 1997.

Mavlono Nidoiyning mazkur qo‘lyozma tarjima asari farmatsevtika fanlari doktori Rajabboy Sobirov tomonidan Xonqa tumani Oxunboboyev nomli jamoa xo‘jaligida istiqomat qiluvchi Ibrohim Qurbonov xonadonidan 1965-yilda topilgan. Rajabboy Sobirov Mavlono Nidoiy yozgan “Manofe ul-inson” asarini tarjima qilib unga sharh yozishi xayrli ish bo‘libgina qolmay, tibbiyot sohasida izlanuvchilar nabotat olamini o‘rganuvchi va tarixchilarimiz uchun muhim qo‘llanma hamdir. Bu sharh aynan “Feruzshohga noyob sovg‘a” deb nomlangan risoladir. Tarjimonning muvaffaqiyati shundaki, asarning barcha boblarida muallif tomonidan aniq, ko‘rsatilgan kasalliklar, dorinomalar, dori shakllarini tayyorlash va bemorlarga tavsiya qilishdagi o‘ziga xos uslublar haqida haqida yetarli m‘lumot berilgan.

Muallif asarida o‘zi haqida to‘xtalar ekan, u Qrim xoni Sohib Gireyxonning (1520-1566) shaxsiy tabibi bo‘lganligini, tabobat va fanning boshqa sohalari bilan shug‘ullanganligini, hamda 22 ta asar yozganligini bayon qiladi. Adabiyotlarda, kutubxonalarida, O‘zbekistonda ham Mavlono Nidoiy yoki uning asarlari haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q. Biroq nemis olimi Vilgelm Partish (1859) tomonidan nemis tilida tuzilgan “Sharq qo‘lyozmalari” to‘plamining birinchi qismida Nidoiy haqiqatan ham Qrim xoni Sohib Gireyxonning birinchi shaxsiy shifokori bo‘lganligi hamda tabobat sohasida 60 bobdan iborat asar yozganligi qayd etilgan. Hatto Vilgelm Partish mazkur asarning bir nusxasi Xiva xoniga noma‘lum savdogar tomonidan sovg‘a qilinganligini ham tasdiqlagan. Asarning bir nusxasi hozirgi kunda Germaniyaning Myunxen shahar kutubxonasida 212 – V inventar nomerida saqlanayotganligini yozadi. Ushbu topilgan asar 60 bobdan iborat bo‘lib, arab alifbosida yozilgan Mahmud Oxun Xonqaiy tarjimasidir.

“Feruzshohga noyob sovg‘a” risolalasida asarning har bobiga undagi eng asosiy tibbiy ma‘lumotlarning tarjimasiga shu bilan birga kasallikning kelib chiqish sabablari va ularni davolash uslublari hamda dori vositalariga hozirgi zamon talablari nuqtayi nazaridan ilmiy yondashilgan. Shuningdek, Nidoiy ishlatgan xalq tabobatining dori turlari, dorivor giyohlarning qo‘llanilishi, ularning bir nechta tillardagi nomlari hamda dori nomlari hamma uchun tushunarli izohlar bilan soddalashtirib berilgan.

Tadqiqotchi Sherali Avazmetov 1993-yil Xorazm viloyati Xonqa tumani “Durvadik” qishlog‘ida istiqomat qilgan Komil xo‘ja boboga o‘z otasi Qori Xo‘jadan meros bo‘lib qolgan XVI asr boshlariga mansub katta tabib Nidoiy Benavoyni tabobat haqidagi ikki kitobini o‘z ichiga olivchi asarini topishga muvaffaq bo‘ladi. Birinchisi Nidoiyning “Manofe un-nos” (Inson vujudiga foydalar), ikkinchisi Ja‘far xoja Al-Husayniy Al-Karvakiy Al-Hazoraspiyning “Multaqitut-tib” (Tabobat to‘plamlari) asaridir.

“Manofe un-nos” asari chiroyli nasta’liq xatida Xorazm shevasida yozilgan. Hajmi 400 bet atrofida bo‘lib, har betiga 11 qatordan yozilgan. Asar 60 bobga ajratilgan. Har bir bobda inson tanasi, vujudida paydo bo‘ladigan turli kasalliklar, ularning alomatlari, davolash yo‘llari, mazkur kasalliklar uchun dorilar tayyorlash usullarigacha juda tushunarli qilib bayon qilingan.

Ushbu asar mohir xattot mulla Qurbonboy bin usto Rahimberdi tomonidan ko‘chirilgan. Bu noyob durdonaning muallifi bo‘lmish Nidoiyning o‘zi haqida aniq ma’lumotga ega emasmiz. Biroq mazkur “Manofe un-nos” asari uning o‘ta bilimdon va tajribali tabib o‘tganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Nidoiyning o‘zi asarning oltmishinchi bobida quyidagilarni yozadi: “Bul faqir haqir Nidoiy sohibi tasnif xokdoni olamga vujudga kelganimda to‘rt og‘a-ini edik. Va ularning barchalarining kichigi men faqir Nidoiy Benavoiy edim. Va non va namakdan nasibam tortib, olam sayohatiga tushib, Qrim tarafga azimat etdim va Qrimning hokimi Garoyxon degan mening fazl va kamolimdan ogoh bo‘lib, meni o‘ziga yaqin sohibroz va mahrami dilnavoz etdi”².

Yuqoridagi parchadan Nidoiy XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi yarimida yashab o‘tgan degan xulosaga kelish mumkin. Chunki Garoyxon hukmronligi aynan shu davrlarga to‘g‘ri keladi. Asar yozilgan davr bilan hozirgi kun o‘rtasida ancha vaqt o‘tgan. Shunga ko‘ra o‘sha davrda ishlatilgan so‘zlar, o‘simlik, giyoh va taomlar nomlari ham o‘zgarishga uchragan. Ko‘pchilik, giyoh va taomlar nomlari arabcha va forscha so‘zlar bilan atalgan. Sherali Avazmetov tomonidan

² Avazmetov Sh, Manofe un-nos, Toshkent: Xorazm nashriyoti, 2004

ushbu asar 2004-yilda “Manofe un-nos” nomi bilan nashrga tayyorlash asnosida yuqoridagi arabcha, forscha va boshqa tushinarsiz soʻzlarni arabcha, forscha va turkiy lugʻatlar asosida oʻzbek tiliga oʻgirilgan hamda kitobning tilini saqlagan holda ularni kitobning oxirida, lugʻatda keltirgan.

Bugungi kunda Mavlono Nidoiyning ushbu asari professor Rajabboy Sobirov shaxsiy kutubxonasiga saqlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avazmetov Sh. Manofe un-nos. Toshkent: Xorazm nashriyoti, 2004
2. Sobirov R. Feruzshohga noyob sovg'a. Urganch, 1997